



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023-YIL YANVAR-DEKABR
(DASTLABKI MA‘LUMOT)**



Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3666 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 661 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,0 % i) Nukus shahriga, 375 tasi (10,2 %) Amudaryo tumaniga, 346 tasi (9,5 %) Ellikqal‘a tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.






Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalaridan 18803,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 101,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi–ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Taxiatoş tumanida (29824,9 ming so'm), Nukus shahrida (25331,7 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (9451,4 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi




mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16237,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86,4 % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nukus shahri (45,4 %), Taxiatosh tumani (12,1 %), Qo'ng'iro't tumani (6,7 %), Amudaryo tumani (5,0 %), To'rtko'l tumani (4,5 %) hamda Beruniy tumani (3,7 %) hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Qo'ng'rot tumanida (112,2 %), Bo'zatov tumanida (110,4 %) hamda Xo'jayli (110,4 %) tumanida kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 380,7 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,0 % ga toʻgʻri keldi.



*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Ohaktosh, ming t.	231,1	175,9	-55,2
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.	110,6	151,2	40,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m	1312,3	999,6	- 312,7
Gaz kondensati, ming t.	79,1	63,6	- 15,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16237,9 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 86,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 50,1 % (59,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 6,3 % (5,2 %), quyi texnologiyali 43,5 % (35,1 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi–50,7 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–20,5 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,4 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi–20,1 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,8 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—4,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,1%), mebel ishlab chiqarishning ulushi –1,6 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 227,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 488,1 ming tonna portlandsement (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 68,9 % ga ko'paygan), 1,3 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (21,2 % ga ko'paygan), 16,2 ming tonna kalava ip (11,3 % ga ko'paygan), 4,2 ming tonna tozalangan guruch (9,7 % ga ko'paygan), 4,8 ming tonna o'simlik yog'i (7,0 % ga kamaygan), 33,1 ming tonna paxta tolasi (8,1 % ga kamaygan), 3388,8 ming litr aroq (9,6 % ga kamaygan) hamda 64,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	3748,4	3388,8	-359,6
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	5174,2	4813,1	- 361,1
Portlandsement, t.	288919,8	488112,0	199192,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	102351,1	64396,5	- 37954,6
Paxta tolasi, t.	35976,6	33075,4	-2901,2

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish—kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 49,9 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 8108,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish—minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 783,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 16,2 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 2987,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 280,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 19,3 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3133,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 118,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 193,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish—rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 118,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 129,8 mlrd. so'm kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish—korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 227,0 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 257,6 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2079,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,0 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 95,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 74,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	5373,9	5148,8	-225,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	55,2	40,9	- 14,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	127779,3	129918,3	2139,0

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 105,4 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.

yanvar-dekabr
mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-dekabr
FHI, % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlaribo'yicha taqsimlash bo'yicha 2,0 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish,transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 0,4 % ga ko'paydi.

Shuningdek, xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 48,1 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	8571,5	8609,3	37,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	65803,0	67109,0	1306,0
Xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	18228,7	9459,1	-8769,6

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2805,2 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,8 %, uning jami sanoatdagi ulushi 14,9 % ga to'g'ri keldi.

2022-yilning shu davriga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Xo'jayli tumani (194,3%), Nukus tumani (117,0 %), Shumanay tumani (115,5 %), Ellikqal'a tumani (112,5 %), Amudaryo tumani (109,2 %), Bo'zatov tumani (106,9 %) hamda (105,0 %) Qonliko'l tumani korxonalaridan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 83,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 16,3 % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 86,8 %*, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 13,2 %* ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 99,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 126,3 % ga to'g'ri keldi.

* 2023-yil hisoblash metodikasi bo'yicha

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.


Shahar va tumanlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining Qoraqalpog'iston Respublikasining jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 22,5 %, shuningdek, Taxiatoş tumani 11,9 %, Xo'jayli tumani 11,2 %, Amudaryo tumanida 9,6 % kuzatildi.

Amudaryo	109,2
269,3	● ● ● ● ● ● ● ●
Beruniy	100,3
201,6	● ● ● ● ● ● ● ●
Bo'zatov	106,9
20,0	● ● ● ● ● ● ● ●
Qorao'zak	100,0
39,7	● ● ● ● ● ● ● ●
Kegeyli	104,9
62,6	● ● ● ● ● ● ● ●
Qo'ng'iro't	100,2
131,0	● ● ● ● ● ● ● ●
Qonliko'l	105,0
37,8	● ● ● ● ● ● ● ●
Mo'ynoq	100,1
55,6	● ● ● ● ● ● ● ●
Nukus t.	117,0
66,5	● ● ● ● ● ● ● ●
Taxiatioş	97,4
333,4	● ● ● ● ● ● ● ●
Taxtako'pir	43,7
54,0	● ● ● ● ● ● ● ●
To'rtko'l	79,7
212,5	● ● ● ● ● ● ● ●
Xo'jayli	194,3
313,2	● ● ● ● ● ● ● ●
Chimboy	92,6
134,7	● ● ● ● ● ● ● ●
Shumanay	115,5
41,6	● ● ● ● ● ● ● ●
Ellikqal'a	112,5
200,3	● ● ● ● ● ● ● ●
Nukus sh.	100,0
631,4	● ● ● ● ● ● ● ●


● ● mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da


yanvar-dekabr
mlrd.so'mda



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida
iste'mol tovarlarining ulushi




yanvar-dekabr
o'sish sur'ati, % da




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1410,1 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatosh tumanida—4356,7 ming so'mni, Xo'jayli tumanida—2447,4 ming so'mni va Nukus shahrida—1874,4 ming so'mni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi




Amudaryo	107,3
1280,5	
Beruniy	98,4
992,4	
Bo'zatov	106,7
914,2	
Qorao'zak	99,3
731,1	
Kegeyli	104,1
840,5	
Qo'ng'iro't	99,0
968,7	
Qonliko'l	103,6
708,0	
Mo'ynoq	99,2
1656,5	
Nukus t.	114,9
1245,3	
Taxiatosh	96,5
4356,7	
Taxtako'pir	44,7
1386,1	
To'rtko'l	78,4
937,3	
Xo'jayli	192,0
2447,4	
Chimboy	91,9
1167,4	
Shumanay	114,4
718,8	
Ellikqal'a	110,3
1182,2	
Nukus sh.	98,5
1874,4	

● ● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da


Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 23,0 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 13,7 % ni, Xo'jayli tumani 11,9 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

83,7 %




Amudaryo	103,0
217,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Beruniy	96,6
171,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Bo'zatov	100,5
16,3	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qorao'zak	96,4
31,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kegeyli	88,8
43,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qo'ng'iro't	91,7
103,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qonliko'l	97,7
29,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Mo'ynoq	95,2
48,5	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nukus t.	115,4
50,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Taxiatosh	97,4
322,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Taxtako'pir	40,8
48,3	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
To'rtko'l	73,6
170,3	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Xo'jayli	209,5
279,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
	91,1
113,5	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shumanay	120,4
33,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Ellikqal'a	102,1
128,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nukus sh.	98,0
540,5	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●

● ● mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 19,9 % ni, Elikqal'a tumaniga 15,7 % va Amudaryo tumaniga 11,3 % ekanligi kuzatildi.




Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

16,3 %



yanvar-dekabr o'sish sur'ati, % da




Amudaryo	146,8
51,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Beruniy	127,0
30,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Bo'zatov	147,6
3,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qorao'zak	118,0
7,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kegeyli	176,5
19,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qo'ng'iro't	155,1
27,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qonliko'l	141,9
8,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Mo'ynoq	154,9
7,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nukus t.	122,4
16,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Taxiatosh	95,9
11,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Taxtako'pir	110,1
5,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
To'rtko'l	119,6
42,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Xo'jayli	121,4
33,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Chimboy	101,4
21,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shumanay	98,4
7,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Elikqal'a	137,6
71,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nukus sh.	113,7
90,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●



● ● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5330,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 28,3 % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,5 % ni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Amudaryo	57,5
543,1	
Beruniy	94,2
651,4	
Boʻzatov	100,0
39,8	
Qoraoʻzak	57,2
376,3	
Kegeyli	39,8
150,7	
Qoʻngʻirot	24,8
312,3	
Qonlikoʻl	39,7
164,6	
Moʻynoq	62,8
192,9	
Nukus t.	79,3
311,4	
Taxiatosh	6,0
136,6	
Taxtakoʻpir	17,5
57,5	
Toʻrtkoʻl	37,1
311,4	
Xoʻjayli	93,6
420,8	
Chimboy	38,1
159,1	
Shumanay	90,1
250,9	
Ellikqalʼa	60,2
353,4	
Nukus sh.	10,5
898,1	

● ● mlrd. soʻmda Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 39 ta loyiha bo‘yicha 884,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 29,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 637 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

